

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

4-son
(iyul-avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chиqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT





MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- Sh. Yo'ldosheva 88 Boshlang'ich sinflarda ta'lif tarbiya jarayonini tashkil qilishning innovatsion texnologiyalari
N. Sobirova 91 Xalq og'zaki ijodi va folklorning yoshlar ma'nnaviy hayotida tutgan o'rni



TA'LIMDA MENEJMENT

- S. Eshqobilov 94 Umumiy o'ta ta'lif maktabi direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar



TA'LIMDA MONITORING

- M. Fayziyeva 98 Ta'lif samaradorligini oshirishda baholashning shakllantiruvchi va xulosalovchi bosqichlarining o'mi



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

- B. Karimov 101 Ta'lif-tarbiya jarayonida Olimpiya o'yinlarining ahamiyati



MAKTABGACHA TA'LIM

- Sh. Xo'jamberdiyeva 105 Maktabgacha ta'lifda multimedia vositalaridan foydalanish
G. Nazirova 109 Maktabgacha ta'lif-tarbiya sifatini ta'minlashda hamkorlik pedagogikasi asosiy omil sifatida
N. Abdusamatova 113 Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarni ma'nnaviy-axloqiy tarbiyalash omillari
M. Fayzullayeva 117 Maktabga tayyorlov guruhi uchun nutqni rivojlantirishning variativ dasturi



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

- H. Umarova
B. Karimov 120 Maktablarda raqamli bilimlar samaradorligini oshirish masalalari



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

- D. Yusupova 124 Malaka oshirish tizimida ta'lif muassasasi rahbarining huquqiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari



QIYOSIY PEDAGOGIKA

- U. Babaxodjayev
O. Ismanova 129 Umumiy o'ta ta'lif maktablarda fizika fanini o'qitishda xorij tajribasidan foydalanish



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- Z. Dzugaeva 133 Komponenty rечевой деятельности в процессе обучение студентов медицинского образования



НАУКА, ПРОСВЕЩЕНИЯ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

- N. Sharipova 137 Информатизация учебного процесса – один из важнейших факторов оптимизации обучения



ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

- L. Evstaфьева 140 Использование наглядного моделирования в речевом развитии детей дошкольного возраста

Материалы конференции опубликованы на сайте Узбекистанской Академии педагогических наук по адресу: www.uzped.edu.uz. Каждый участник конференции имеет право на использование материалов конференции для научных целей, а также для публикации в научных журналах и сборниках. Материалы конференции не могут быть распространены в коммерческих целях без письменного разрешения организаторов конференции.

Женис Ури



Nargiza ABDUSAMATOVA,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MA'NAVIY- AXLOQIY TARBIYALASH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga integratsion yondashishning mazmuni, vazifalari va omillari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Ma'naviy-axloqiy tarbiya, maktabgacha ta'lif, milliy qadriyatlar, ta'lif-tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalar.

В статье рассматриваются содержание, цели и факторы комплексного подхода к духовно-нравственному воспитанию дошкольников.

Ключевые слова. Духовно-нравственное воспитание, дошкольное образование, национальные ценности, образование-воспитание, дошкольники.

The article discusses the content, objectives and factors of an integrated approach to the spiritual and moral education of preschool children.

Key words. Spiritual-moral education, preschool education, national values, education, preschool children.

Mustaqlilikka erishganimizdan keyin hukumat tomonidan barcha e'tibor milliy qadriyatlar va madaniyatni qayta tiklashga, ta'lif-tarbiya tizimini isloh qilishga, milliy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga qaratildi. Tarbiya milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va xalq an'analari ta'siri ostida samarali bo'ldi, ma'naviy-axloqiy barkamollikka erishiladi.

Dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish va bu borada tarbiyaga kompleks yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyanı tarkib toptirishning innovatsion-pedagogik modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, maqbul diagnostik vositalarni modifikatsiyalash orqali bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligini tashxis etishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, bolalarni dastlabki odob-axloq qoidalariiga o'rnatish, ularga amal qilish ko'nigmalarini shakllantirishda integrallashgan mashg'ulotlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirishda ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda ta'lif-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida maktabgacha ta'lilda ham me'yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Жасон Ури



O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lif bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, integratsion yondashuv asosida maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, maktabgacha yoshdagagi bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning integrativ modelini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining 2-bob 3-bandida integratsiya tushunchasiga alohida to'xtalib, integratsiya – bola ta'lifi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'tasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi jarayon ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

"Integratsiya" so'zi lug'atlarda izohlanishicha, lotincha, "integratio" so'zidan olin-gan bo'lib, qayta qurish, tiklash, to'ldirish ("integr" – to'liq, butun, yaxlit degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, boshqa bir lug'atlarda "integratsiya" – o'zaro bog'langan holda rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'tasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi jarayon ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi.

2. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tushunchalarni egallahsha bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma'naviy-axloqiy ongni qaror toptirish.

3. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlar (vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, qat'iylik, mas'uliyatlilik, ozodalik, orastalik, o'zaro do'stlik, ahillik, shirinso'zlik, saxiylik, jasurlik, go'zallilikni his qilish, go'zallilik yaratishga intilish va hokazolarni) qaror toptirish.

4. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda ma'naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakkantirish.

5. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakkantirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda integratsion yondashish asosida maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimiga xizmat qiluvchi ijobiy omillar bilan birga undagi pedagogik muammolarni ham aniqlashga imkon beradi:

– maktabgacha ta'lif tashkilotlarda o'ziga xos integral pedagogik muhit yaratish ehtiyoji va unga tashqi-ijtimoiy stixiyali ta'siri;

– tarbiyachilarni kasbiy kompetentligi, kreativligi va kasbiy mahoratini oshirish tizimi oldida turuvchi vazifalar va ushbu vazifalarni hal etish uchun ilmiy-uslubiy va didaktik ta'minot darajasining yetarli emasligi;

– tarbiyachilarning "Ilk qadam" davlat o'quv dasturlari asosida bolalar faoliyati va uning mazmunini integratsiyalash malakasiga ega emasliklari;

– maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimidagi integratsiya (yaxlitlik) va dezintegratsiya (bo'linish, parchalanish) jarayonlari o'tasidagi

ziddiyatlar;

- maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ta'lif jarayonining an'anaviy shakllari, metodlari va innovatsion metodlarini joriy etish o'rtasidagi ziddiyatlarning mavjudligi;
- maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiya jarayonining tashkiliy qismi, mazmuni va tarbiya jarayonining metodikasi o'rtasidagi nomuvofiqliklar; Yuqoridagi fikrlarga tayanib, maktabgacha ta'lif tashkilotlarida integratsiyaning qo'llanishini quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiqdir:
 - maktabgacha ta'lif tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda guruh tarbiyalanuvchilarining yoshi va bilim savyasini hisobga olish;
 - integratsiyalashgan faoliyatni tashkil etishda maktabgacha yoshdag'i bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalovchi vosita sifatida qarash;
 - barcha tarbiyaviy tizimlar markaziga bola shaxsini qo'yish;
 - bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga insonparvarlik asosida yondashish va ularda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish;
 - bolaning ijodiy qobiliyatlarini, uning individualligini rivojlantirish;
 - individual va jamoaviy tarbiyani hisobga olish lozim bo'ladi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarda shakllanadigan ma'naviy-axloqiy sifatlar bevosita ularning yosh va individual xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqidir. Go'daklik davridan 3-4 yoshgacha bo'lgan davrda salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, yaxshi va yomon to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar, mumkin, mumkin emas tushunchalari, ma'naviy-axloqiy ko'nikmalari, odatlari, o'zi tug'ilib o'sgan uyi, oila a'zolariga, atrof-muhitga, mehnatga, insonlarga mehr-muhabbat, kabi dastlabki ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllantirilsa, 5-7 yoshgacha bo'lgan davrda o'zi tug'ilib o'sgan Vataniga, ota-onasiga, do'stlariga mehr-muhabbat shakllantiriladi. Intizom, o'zini tuta bilishlik, kamtarinlik, rostgo'ylik, saxiylik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, go'zallikni his qila olish, turli salbiy tahdidlarga o'z munosabatini bildira olish, mardlik, shijoat, qat'iyat, zukkolik, jasorat, go'zallik, oliyanoblik, mehr-shafqat, oriyat kabi yuksak fazilatlarni jamlab olgan ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi takomillashtiriladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida maktabgacha yoshdag'i bolalarni rivojlanish sohalariga integratsion yondashuv asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni "Til va nutq", "Qurish yasash, konstruksiyalash va matematika"; "San'at"; "Syujetli rolli o'yinlar va drammalashtirish"; "Ilm-fan va tabiat" rivojlanish markazlarida amalga oshiriladi.

Ta'lif markazlarida olib boriladigan nutqni rivojlantirish, tasviriy faoliyat, badiiy adabiyot, atrofdagi olam bilan tanishish, tabiat bilan tanishish, elementar matematika va shu kabi mashg'ulotlar maqsadlariga integratsion yondashish, bola shaxsini shakllanishi, ma'naviy dunyoqarashining rivojlanishi, axloqiy xulq-atvor malakalarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, tasviriy faoliyat jarayonida bola atrof-olamni idrok etadi. Rasm chizish, qurish-yasash, applikatsiya, loy ishiga o'rgatish, boshqa faoliyat turlari bilan uyg'unlashtirish bolalarning aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlanishiga olib keladi.

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda integratsiyaning quyidagi turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

Mavzulararo integratsiya – ("Ilk qadam" davlat o'quv dasturidagi oylik va haftalik mavzular integratsiyasi). Masalan, dasturda tayyorlov guruhiда sentabr oyi uchun "O'zbekiston menin-Vatanim" mavzusi berilgan. Demak, shunga ko'ra, birinchi haftasi "Mening qadrdon O'zbekistonim", ikkinchi hafta "Mening shahrim – menin mahallam",

uchinchchi hafta "Men va mening oilam" va to'rtinchi hafta "Men va mening do'stlarim" nomli mavzularga bag'ishlanadi, ya'ni mazmunan bir-biriga bog'lanadi. "Oltin kuz" mavzusida tabiat bilan tanishtirish mashg'uloti tashkil etilib, tabiat hodisalarini haqida ma'lumot beriladigan bo'lsa, bolalarni o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash uchun rasm mashg'ulotida daraxt yaproqlarini yoki ixtiyoriy mavzuda rasm chizishlari maqsad qilib olinadi. Badiiy adabiyot mashg'ulotlarida kuz fasliga oid she'rni yod oldirish orqali bolalar olgan bilimlari mustahkamlanadi.

Mashg'ulotlararo integratsiya – (katta va tayyorlov guruhlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar integratsiyasi) asosida, masalan, nutqni rivojlantirish mashg'ulotida ularning yoshi, tushunchasi va ruhiyatiga mos keladigan ertak, hikoyalarni so'zlab berish orqali badiiy didlarini o'stirish va asarlarda aks ettirilgan voqealar mazmunini tushunish malakasini shakllantirish, bolalarda kitobga nisbatan qiziqish, mehr hislarni uyg'otish. Bolalarda xushmuomalalilik va orastalikni shakllantirish. "Yaxshi", "yomon" kabi so'zlarning o'zaro farqini anglashga, qilish mumkin bo'lgan va bo'limgan xatti-harakatlarni farqlashga, o'zidan kattalarga hurmatda bo'lishga, qo'lini ko'ksiga qo'yib "Assalomu alaykum" deb salomlashishga o'rgatish; tasviriy faoliyat mashg'uloti va nutqni rivojlantirish mashg'ulotini integratsiyalash orqali bolalar diqqatini badiiy asar mazmuni asosida ishlangan rasmlarga qaratish, ularni sinchiklab tomosha qilishga o'rgatish, rasmlardagi go'zallikni his etish, undan zavqlanish hissini shakllantirishga erishiladi.

Faoliyatlararo integratsiya – (o'yin, o'quv va mehnat faoliyati inegrallashuv) turini horizontal va vertikal integratsiya tamoyili asosida tashkil etish natijasida bolalar rivojlanish sohalari kompetensiyalarini, ma'nnaviy-axloqiy sifatlarni uyg'un rivojlantirishga erishiladi.

Rivojlanish markazlariaro integratsiya – (til va nutq; qurilish va konstruksiyalash markazi; san'at, syujet-rolli o'yinlar va drammalashtirish markazi; ilm-fan va tabiat markazidagi bolalarning mustaqil faoliyatini integratsiyalash) faoliik markazlaridagi erkin mustaqil faoliyat orqali bolalarning ma'nnaviy-axloqiy sifatlari mustahkamlanadi, xulq-atvorda namoyon bo'ladigan salbiy xususiyatlar bartaraf etiladi.

Myxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzlusiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini sifatida bolaning har tomonlama rivojlanishi, ma'nnaviy yetuk shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rinn tutadi.

Bundan ko'rindaniki, barcha rivojlanish markazlarini talab darajasida to'g'ri tashkil etish boshlang'ich kompetensiyalarni, ya'ni bola shaxsini har tomonlama shakllanishi, ma'nnaviy-axloqiy sifatlarni uyg'un rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Foydalaniqan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. PF-4947-sон. 2017-yil 7-fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalar rivojlanishi ga qo'yiladigan davlat talablari. 2018-yil. 18-iyun.
3. Hasanboyev J., To'raqulov X. va b. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008-y.
4. Azimova Z. Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish / monografiya. –T: Muharrir. 2018-y. – 164-b.